

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARI
BERUNIY RAYONLIQ
KENESINIŇ
QARARI**

2023 - yil 18 - yanvar

VI-60-6-13-182-K/23

Beruniy tuman hokimligi

Bolalar masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2022-yilning o'n ikki oyi davomida amalga oshirgan ishlari haqidagi hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-sonli "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining 5-bandiga muvofiq, Bolalar masalalari bo'yicha Beruniy tumani komissiyasining amalga oshirgan ishlari haqidagi komissiya kotibining hisobotini tinglab, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" Qonunining 6,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Beruniy tumani hokimligi huzuridagi Bolalar masalalari bo'yicha komissiyasi kotibi F.Yeshimbetovanning

Beruniy tumanida 197360 aholi bo'lib, ulardan 70299 tani 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan yoshlarni tashkil qiladi. Shulardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida 13845 nafar, umumta'lim maktablarida jami 39011 nafar voyaga yetmaganlar tashkil etishi;

Tumandagi maktablarda 1692 ta fan to'garaklari tashkil qilingan bo'lib, to'garaklarda 31883 o'quvchilar fan to'garaklariga qatnashib kelayotganligi;

Bundan tashqari 5 ta muhim tashabbus doirasida 696 ta to'garak tashkil etilgan bo'lib, 15724 nafar o'quvchini qamrab olinganligi;

Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, kasb maktablarining majburiy ta'limdan bosh tortgan bolalar o'rtasida Ichki ishlar bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda targ'ibot tashviqot ishlari olib borilganligi;

Yetim ota-onasi vaqtincha yashash joyida bo'lmagan bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik maqsadida, Vasiylik va homiylik komissiyasi tomonidan 22 nafar bolalarga vasiylik, 4 nafar bolalarga homiylik tayinlanganligi, Vasiylikka va homiylikga olingan 54 nafar chin yetim bolalar va 6 nafar Oilaviy bolalar uyining bolalarini Xorazm viloyati Xiva shahriga sayohatga olib borilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 20-bob 151-moddasiga asosan tumanimizda 36 nafar bolalar farzandlika berilganligi, Mehr daftari platfo'rmasiga jami 62 nafar chin yetim bolalar kiritilganligi hamda Mehr daftari platfo'rmasiga 1-bosqichda kiritilgan 14 nafar yetim bolalarning muammolarini hal etish, ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash, orzu istaklarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan "Yo'l haritasi" ijrosi tashkil etilganligi haqidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i (M.Muratov)ga:

tumanda voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri (A.Xudaybergenov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i (T.Matyakupov) voyaga yetmaganlar orasida tushkunlikka tushgan, qarovsiz, nazoratsiz qolgan, shuningdek ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilarning hisobini yuritish, bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida tuman hokimligi huzuridagi komissiya bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishni ta'minlasin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i (D.Palvonov) spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan bolalarni tashxislash, davolash va tibbiy ijtimoiy reabilitatsiya qilish, bolalarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etsin.

5. Tuman maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i (S.Adjibayev) maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama kamol topishiga munosib shart-sharoitlarni yaratish, ularni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olish, oilaga tarbiyaga olingan bolalar, ijtimoiy ko'makka muxtoj oila bolalarini imtiyozlar asosida ta'lim-tarbiya olishini ta'minlasin.

6. Tuman madaniyat bo'limi boshlig'i (B.Allakov) bolalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish iste'dodini to'la namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni kengaytirsin.

7. Tuman sport bo'limi boshlig'i (E.Dosbayev) bolalarni muntazam sport bilan shug'ullanishga jalb etish, bolalar sport ta'limi sifatini oshirish choralarini ko'rsin.

8. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining "Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi (Abisheva) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror tuman "Xalq minbari" gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

Kengash raisi



A.Saparbayev